

## BUXORO VA XORAZM IQTISODIY KENGASHLARINING FAOLIYATI, ULARNING RESPUBLIKALAR IQTISODIYOTIDAGI TURGAN O'RNI

Payg'amov Sh.  
ADPI, o'qituvchisi  
E-mail: [shohruxbek086@gmail.com](mailto:shohruxbek086@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqola 1917 yil 25 oktayabrdan ro'y bergan to'ntarishidan so'ng hokimiyatga kelgan bolsheviklarning Turkistonda o'z hokimiyatini o'rnatgan dastlabki yillarida o'lkadagi qishloq xo'jaligi hamda sanoatning ahvoli va bunda Buxoro va Xorazm iqtisodiy kengashlarining tutgan o'rniga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston iqtisodiy kengashi, Turkiston komissiyasi, Buxtekstil, O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi, Xalq nozirlar Sho'rosi, xom ashyo bazasi, favqulotta masalalar, Buxoro Mexnat va Mudofaa Kengashi

### KIRISH

Bolsheviklar tomonidan 1917 yil 25 oktabrda amalga oshirilgan davlat to'ntarilishi Turkiston uchun ham og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi. Paxta va boshqa qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish kamayib ketdi. Texnik ekinlar va boshqa maxsulotlarni o'lakdan olib ketish qisqargani, ular zahirasining xalokatli darajada kamayib ketganligi, narxlarning pasayishiga, dexqonlar va ishchilarning mexnatini qadrsizlanishiga, ularning xonavayron bo'lishiga olib keldi. 1917-yil oktabrda Rossiyada amalga oshirilgan harbiy to'ntarish oqibatida butun mamlakatda, shu jumladan Rossianing mustamlakasi bo'lgan Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, ayniqsa o'lka xalqlarining istiqlol uchun muqaddas kurashga otlanishlari Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududidagi xalqlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, albatta. 1868-yilda Rossiya bilan Buxoro amirligi va 1873- yilda Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasida imzolangan bitimlarga asosan har ikkala mustaqil davlat Rossianing yarim mustamlakasi hisoblanardi, bu davlatlar chet el davlatlari bilan mustaqil suratda biror bir sohada aloqa qila olmas edilar.

### EXECUTIVE SUMMARY

Buxoro amirligi va Xiva xonligida sodir bo'layotgan xalq kurashining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati tashkil etar edi. Buxoro va Xivada vujudga kelgan jadidchilik harakatida 1905–1907-yillarda Rossiyada yuz bergen inqilobning va Yosh turklarning 1908-yilda o'z monarxlariga qarshi bosh ko'tarishlari katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Shu boisdan Buxoro va Xiva jadidlari «unchalik keskin bo'lmasa-da,

jamiyatni isloq qilish tarafidolari bo‘lib maydong chiqdilar.[1.72] Misol uchun Yosh buxoroliklarning mamlakatda islohotlar o‘tkazish talabi bilan chiqishi natijasida amir Olimxon 1917 yil 7 aprelda manifest e’lon qildi. Lekin keyinchalik ulamolar talabi bilan namoyishga chiqqan Yosh buxoroliklar ruhoniyalar va madrasa mullavachchalari tomonidan toshbo‘ron qilindi. Fayzulla Xo‘jayev va uningayrim safdoshlari zo‘rg‘a Kogon shaxriga qochib, omon qoldilar. Shunday sharoitda amir Olimxon va bolsheviklar bir-biriga qarshi zimdan urushga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. 1919 yil boshlariga kelib zimdan bir biriga qarshi zimdan urushga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. 1919 yil bohlariga kelib amir sarbozlari soni 25 ming nafarga yetdi. Shu bilan birgalikda amir Olimxon Afg‘oniston bilan xarbiy-iqtisodiy bitim tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Shu bilan birgalikda amir Olimxon Afg‘oniston bilan xarbiy-iqtisodiy bitim tuzishga muvaffaq bo‘ldi. 1920 yil 2 sentabrda amir taxtdan ag‘darilib tashlandi. Poytaxt bosib olingach, hokimiyat Muvaqqat Butun Buxoro Inqilobiy Qo‘mitasi qo‘liga o‘tdi. Inqilobiy qo‘mita tarkibiga Axmadjon Abdusaidov, Fayzulla Xo‘jayev, Muinjon Aminov, Olimjon Achquin, Abdulxamid Oripov, Sobir Yusupov, Xoji Xasan Ibrohimovlar kiritildi.

BXSRda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bolsheviklarni qoniqtirmas edi, ayniqsa F. Xo‘jayev boshchligidagi hukumatning real mustaqillikni qo‘lga kiritishiga intilishi , Markaz vakillarini tashvishga solardi. Natijada BXSR ustidan siyosiy va iqtisodiy nazorat kuchaytirildi. Sovet hukumati inqirozli axvoldan chiqishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li iqtisodiyotni bir joydan Markazdan turib boshqarish va taqsimotni bir joydan amalga oshrish kerak degan masala o‘rtaga tashlandi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiyotini ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida BXSR da xam, Turkiston ASSR tajribasidan kelib chiqib, Iqtisodiy Kengash tashkil qilindi. Ma’lumki Turkiston Iqtisodiy Kengashi 1921 yil fevralda tashkil etilgan bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi. Turkiston Iqtisodiy Kengashi tarkibiy tuzilmasini Turkiston ASSR tarkibidagi: Farg‘ona, Samarqand, Sirdaryo, Turkman, Yettisuv va Amudaryo viloyat iqtisodiy kengashlari tashkil qilgan.[2.94.95.] Buxoro Iqtisodiy Kengashi 1921 yil 12 martda o‘z faoliyatini boshlagan. Kengash raisi etib taniqli arbob Muhiddin Mansurov tayinlangan. M.Mansurov taniqli davlat arbobi Abdulqodir Muhibdinovning otasi bo‘lgan. 1921 yil 9 mayda Buxoro Iqtisodiy Kengashi qayta tuzilgandan so‘ng Boshqaruv, ishlab chiqarish, savdo, oziq-ovqat, paxtachilik, transport, harbiy, moliya bo‘limlaridan iborat bo‘ldi.

Buxoro Iqtisodiy Kengashi quyidagi bo‘limlardan iborat edi. Savdo ishlab chiqarish qo‘mitasi, Yer ishlari qo‘mitasi, Ichki ishlar qo‘mitasi, Davlat nazorat qo‘mitasi, Moliya qo‘mitasi.[ 3.374.]

Boshqaruv bo‘limi rais, uning ikki o‘rnbosari va besh nafar a’zolaridan iborat bo‘lgan. Yuqorida qayd etilgan bo‘limlar orqali Buxoro Iqtisodiy Kengashi mamlakat ustidan to‘liq nazoratni qo‘liga oldi.

Buxoro Iqtisodiy Kengashi tashabbusi bilan 1921 yil 20 noyabrda RSFSR Savdo xalq kommisarligining O‘rta Osiyodagi vakili Nikolay Davidovich Zalsmanov va BXSR Savdo va ishlab chiqarish noziri Mirzo Abdulqodir Muhiddinov o‘rtasida savdo bitimi tuzildi. Bitimga muvofiq, Buxoro hukumati G‘arbiy Yevropa bozorlariga RSFSR vositachiligidagi 200 ming dona qorako ‘l teri sotgan. RSFSR hukumati qorako ‘l teri uchun 200 ming oltin so‘m pulda avans bergan, shuninhdek BXSR hukumati uchun kerakli bo‘lgan boshqa maxsulotlarni yetqazxib berish o‘z zimmasiga olgan.

Buxoro Iqtisodiy Kengashi axolidan paxta xom ashyosini sotib olish uchun tashkil qilgan “Buxtekstil” fabrikasi ustidan xam umumiylar nazorat o‘rnatgan. Fabrikaning paxta qabul qiladigan punktlari Xatirchi, Kalla, Karmana, Yangiyo‘rg‘on, G‘ijduvon, Vobkent, Eske Buxoro, Laqlaqa, Kogon, Chorjo‘y, Karki, Termiz va Sherobodda ochilgan. Ushbu punklar axolidan 1921 yil maxalliy paxta xom ashyosini 225.000 pud paxta xosilini, amerika navli paxta xom ashyosi 57.000 pud, jami 282.000 pud paxta xosilini qabul qildi. Demak ko‘rinib turibdiki, Buxoro Iqtisodiy Kengashi BXSRdagi iqtisodiy islohotlarida asosiy ko‘rsatmalar markaz manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirgan. Shuningdek mamlakat iqtisodiyotini taraqqiyoti uchun ham ayrim ishlarni qilgan.

O‘rta Osiyo respublikalari iqtisodiyotini umumiylashtirish va ular iqtisodiyoti ustidan umumiylar nazoratni o‘rnatish maqsadida 1923 yil 5-9 mart kunlari Toshektna Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining birinchi iqtisodiy konferensiyasini chaqirishgan. Mazkur konferensiyaning so‘nggi 1923 yil 9 martdagi oxirgi majlisida uchta respublika iqtisodiy jihattan birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinib, Toshkentda O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SES) tuzildi.[4.74]

Umuman, Buxoro Iqtisodiy Kengashi respublikalardagi barcha tashkilot va nozirliklar ustidan umumiylar nazorat o‘rnatdi. Xullas Buxoro Iqtisodiy Kengashi bir tomonidan BXSRdagi iqtisodiy va ijtimoiy soxalardagi islohotlarni amalga oshirishda oily boshqaruv organ sifatida katta ishni bajargan. Ikkinci tomonidan u 1923-1924 yillarda O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining ko‘rsatmalarini asosida BXSRdagi barcha iqtisodiy tashkilot va nozirliklar ustidan umumiylar nazoratni o‘rnatgan xamda Markaz topshiriqlarini bajargan. Buxoro Iqtisodiy Kengashi o‘z faoliyatini 1924 yil noyabr oyida to‘xtatilgan[5.145].

1920 yil 8 fevralda Xorazm Xalq Iqtisodiyoti Kengashi tuzildi. Xorazm Xalq Iqtisodiyoti Kengashi tarkibi to‘rtda bo‘limdan iborat bo‘lgan: Yer ishlari bo‘limi, savdo va ishlab chiqarish bo‘limi, davlat inshootlari, mexnat bo‘limi.

1920 yil 26-30 aprelda bo‘lib o‘tgan Butun Xorazm Xalq vakillarining II qurultoyida 15 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi tashkil qilindi[6.217.218]

Uning tarkibida iqtisodiy soxa bilan shug‘ullangan quyidagi ikkita nozirlik faoliyat yuritgan: Yer ishlari nozirligi, Iqtisodiy nozirlik. Bu ikki nozirlik XXSR dagi iqtisodiy masalalarda Xalq Nozirlar Sho‘rosi qarorlariga ko‘ra ish ko‘rgan. Mahalliy sho;rolar nozirliklarga bir yillik kirim chiqimlar xaqida xisobot berib turgan. Bundan tashqari qog‘oz pullarni muomilaga chiqarish xamda bu nozirliklar zimmasiga yuklatilgan. Xorazm Xalq Iqtisodiyoti Kengashidagi bo‘limlar XXSR iqtisodiyotidagi barcha soxalarni qamrab olgan, ayniqsa paxta sanoatini qattiq nazorat qilgan. Xorazm Xalq Iqtisodiyoti Kengashi oradan ko‘p o‘tmasdan Xorazm Iqtisodiy Kengashi deb yuritila boshlagan. Xorazm Iqtisodiy Kengashi raisi etib Shokir Siddiqov tayinlangan. Xorazm Iqtisodiy Kengashi rasmiy ravishda 1921 yil 15-23 mayda Butun Xorazm xalq vakillarining II qurultiyida tashkil etildi. Uning tarkibi quyidagi uch bo‘limdan iborat edi: Yer-suv nozirligi. O‘z navbatida qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya, transport va davlat inshootlari bo‘limlaridan iborat bo‘lgan, Ishlab chiqarish va taminot nozirligi. O‘z navbatida sabdo-sotiq, mexnat va tashqi savdo bo‘limlariga ega edi, Moliya nozirligi. Markaz boshqaruv siyosati Xorazm paxtachiligidida xam olib borilib, 1921 yil 15 iyun Xorazm Iqtisodiy Kengashi qarori bilan uning xuzurida Paxtachilik qo‘mitasi tashkil qilindi. Uning tarkibiy qismi quyidagicha edi, Ish yuritish bo‘limi, Kooperatsiya bo‘limi, Texnika bo‘limi.

1923 yil 21 noyabrda Xorazm Iqtisodiy Kengashi Xorazm Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasiga xisobot berar ekan, quyidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. O‘tkan yarim yil ichida shirkat Xorazm xududida 6 ta paxta qabil qilish punkti ochgan, 3 ta paxta tozalash zavodi ta’mirdan chiqgan, ishga tushirishga tayyorlangan, 20 vagon paxta tolasi Moskvaga jo‘natilgan, bundan tashqai 25 ming pud paxta xom ashyosi jo‘natishaga tayyor bo‘lgan.

Oktabrdan Butun Xorazm Xalq vakillarining IV qurultoyidan so‘ng Xorazm Iqtisodiy Kengashi tarkibiga quyidagi o‘zgartirish kiritildi: Savdo va ishlab chiqarish bo‘limi, Yer ishlari bo‘limi, Moliaviy bo‘limi, Statistika bo‘limi, Davlat reja bo‘limi.

1923 yil 22 oktabrdan Xorazm Iqtisodiy Kengashi raisligiga Dmitriy Bryuxanov tayinlandi.[7.52]

Bundan tashqari Xorazm Iqtisodiy Kengashiga transport va yoqilg‘i bo‘limi, soliq boshqarmalari, yo‘l transport bo‘limlari bo‘ysungan. Umuman olganda, Xorazm Iqtisodiy Kengashi boshqa Iqtisodiy Kengashi singari, respublikadagi oily xo‘jalik organi xisoblanib, mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarda yetakchilik qilgan. Joylarda ish faoliyatini muvofiqlashtirib maqsadida Xorazm xududida Xorazm xududida viloyat iqtisodiy kengashlarini tashkil qilgan. 1924 yildan Xorazm Iqtisodiy Kengashi raisi vazifasida O‘roz Irmanov ishlagan[8.53]

## CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

Xorazm Iqtisodiy Kengashi tashkil topgan dastlabki davrlardan boshlab XXSRdag'i iqtisodiy islohotlarni o'tkazishda ulkan vazifa bajargan. Biroq Markaz ta'sirida xususan 1923-1924 yillarda O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tazyiqi ostida Xorazm Iqtisodiy Kengashi asta-sekin bolsheviklar ko'rsatmalarini bajarishgan. 1924 yil noyabrdada Xorazm Xalq Nozirlar Sho'rosi qaroriga ko'ra Xorazm Iqtisodiy Kengashi o'z faoliyati to'xtatilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ражапов К., Замонов А. Ўзбекистон тарихи (1917-1919 йиллар) Тошкент, 2017. – Б. 73.
2. Ражапов К., Хайдаров М. Туркистон тарихи ( 1917-1924 ). – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 94-95
3. История Бухарской Народной Советской Республики.... С.374
4. Ражапов К., Хайдаров М. Туркистон тарихи ( 1917-1924 ). – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 74
5. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб 1917 – 1939 йиллар. Тошкент: O'zbekiston, 2019. – Б. 145.
6. Юсупов. П. Х. Ёш хиваликлар ( Хотиралр). – Урганч: Хоразм, 1999. – Б. 217-218
7. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганча: Хоразм, 1993 . –Б 52.
8. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганча: Хоразм, 1993 . –Б 53.